Khoshimov Doniyor, Kungratov Ilmurod Kuzibay o'g'li	
Davlat ulushi mavjud bo'lgan korxonalarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda raqamli transformatsiyaning roli	982
Musurmonov Mehroj Murtaza o'g'li	
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda tijorat banklariga moliyaviy resurslarni jalb qilish metodologiyasini takomillashtirish	988
Hamrayev Obid Akhatovich	
Tibbiy xizmatlarda raqamli texnologiyalarni joriy etish va uning samaradorlikka ta'siri (xorijiy tajriba).....	993
Usmonova Vasila Botirovna	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarish amaliyoti tahlili.....	997
Akramova Nargiza Nutfillayevna	
Using integrated marketing communications (IMC) in business management	1002
Ziyayeva M.M.	
Xorijiy mamlakatlarda tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish masalalari va ulardan o'zbekistonda foydalanish istiqbollari.....	1006
Jaxongirov Ilindorjon Jahongirjon o'g'li	
Davlat budjetining ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi xarajatlarini samarali boshqarish yo'llari.....	1011
Qo'ziyev Shodiyor Qilichboy o'g'li	
Mintaqada xalq hunarmandchiligida klasterlash va ekologik logistika modeli asosida savdo tizimini shakllantirish.....	1015
Norqobilova Feruza Abduhomidovna	
To'g'ri xarajatlar usuli va to'liq yutuvchi xarajatlar usuli tizimlarining afzalliklari va farqli jihatlari amaliy misolda.....	1019
Kholisa Kamoliddinovna Kuldosheva	
Investitsiyalarni innovatsiyalarga yo'naltirish bo'yicha xorij tajribasi	1024
Ayubov Ilyos Ilxomovich	
Важность разработки стратегических программ развития страны.....	1028
Каримова Нуржахон Олим кизи	
Sanoat korxonasining raqamli transformatsiyasini baholash omillari va ko'rsatkichlari.....	1032
Kudaybergenov Azamat Shamuratovich	
Namangan viloyatida ijtimoiy turizm tadbirkorligini maqsadli boshqarish mexanizmi.....	1042
Yunusova Sohiba Abdumamidovna	
Evaluating the capital asset pricing model methodology in uzbekistan companies	1048
Bunyod Usmonov	
Aholini ish bilan bandligining yangi turlari va imkoniyatlari	1055
A.B. Khayitov	
Maktab direktorlarini qo'llab-quvvatlashda asosiy ustun amaliyotlar va o'zbekiston ta'lim tizimida ularni qo'llash imkoniyatlari	1059
Mamura Tadjibayeva	
Sun'iy intellekt asosida matematik masalalarni yechish algoritmlari	1064
Oqnazarov To'liqin Jalilovich, Jo'rayev Mardon	
Global ta'lim makonida milliy tarbiyani rivojlantirish istiqbollari	1071
Sanaqulov Sardor Istamqulovich	



Bank xizmatlari sifati va bank daromadlariga ta'sir etuvchi omil sifatida personal faoliyatining o'rni.....	1075
Abdukaxarova Shoira Abduvahobovna	
Fond bozori raqamli iqtisodiyotda investitsiyalarni shakllantirish manbai sifatida.....	1079
Kamilova Sevara Anvarovna	
O'zbekistonda toza suv va sanitariyaning inson hayoti hamda iqtisodiy farovonlikka ta'siri: BRM-6 doirasida tahlil.....	1085
Xasanova Iroda Azizbek qizi	
Increasing the effectiveness of using marketing communications in the tourism services market.....	1090
Sobirjonov Asrorbek Sobitjon ugli	
Davlat xaridlari sohasini takomillashtirish istiqbollari.....	1095
Bazarov Nazirjon Sobirovich	
Xarajatlarning strategik boshqaruv hisobini xo'jalik yurituvchi subyektlarda takomillashtirish.....	1103
Xayitboeva Laylo Oybekovna	
Davlat moliyaviy nazorati tizimida tashqi audit: rivojlangan mamlakatlar amaliyoti.....	1109
Kuliyev Komil Shuxratovich, A.Astanovulov	
Moliyaviy instrumentlarni hisobga olishda biznes modelning ahamiyati va amaliy yondashuvlar.....	1114
Shanasirova Nodira Abdullayevna	
Tijorat banklarida risklarni boshqarishning ustuvor yo'nalishlari.....	1118
Tursunov Ilxom Toirovich	
Chakana va ulgurji savdo korxonalari faoliyatini rivojlanishiga tasir etuvchi omillarni baholash.....	1124
Yuldasheva Gulmira	
Managing tourism in fragile ecosystems: a case study approach.....	1128
Dilmurod Nasimov, Shahrizoda Sirojiddinova	
Tadbirkorlikni innovatsion-investitsion jihatdan baholash uslublari.....	1134
Fayziyev Shavkat Shaxobidinovich	
Зарубежный опыт развития инновационной деятельности предприятий энергетической отрасли.....	1141
Бегмуллаев Отабек Ирисалиевич	
Leveraging machine learning for big data analytics: a strategic overview.....	1148
Ismaylov Timur Kuanishbaevich, Kurbanbaev Bakhtiyar Bakhtovich, Orazbayev Aqilbay Jenisbay uli	
Ta'lim muassasalarida xarajatlar smetasi ijrosining dastlabki hisobini yuritilishi.....	1152
Isoqulov Fazliddin Shamsiddin o'g'li	
"Yengil sanoat korxonalarini qo'llab-quvvatlash choralari haqida".....	1158
Otaxanova Umida Olim qizi	
Investitsion-qurilish jaryonlarini samarali boshqarishning tashkiliy modellari va ulardan foydalanish usullari.....	1162
Abduvaliyev Bekzod Muxiddin o'g'li	
Qimmatli qog'ozlar bozorining mohiyati bo'yicha nazariy asoslar.....	1169
Alimov Ilxomjon Ikromovich, Ikramov Akmalbek Ilxomjon o'g'li	
Adoption of electric vehicles in logistics: opportunities and challenges in Uzbekistan.....	1175
Oblokulova Parvina	
Qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni jalb qilishning xorijiy mezonlari.....	1182
Jurayev Abdug'affor Sofarovich, Nazirova Sayyora Baxtiyorovna	
Raqamli tranformatsiya jarayonlarining mehnat bozori konyukturasiga ta'siri.....	1187
Fayzullayev Nurulla Baxromovich, Xudaybergenova Shukurjon Erkinovna	
Milliy iqtisodiyotda internet xizmatlarini rivojlantirishning o'ziga xos yondashuvi.....	1194
Niyozova Shohsanam Nuritdinovna	



Auditorlik xulosalarini shakllantirishda auditorlik dalillariga qo'yiladigan talablar.....	1199
Qo'shmatov Otaxon Qurbonaliyevich	
Qishloq xo'jaligi sohasini takomillashtirishda investitsion loyihalarning iqtisodiy mohiyati.....	1203
Israilova Xikoyat Musakulovna	
Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari.....	1207
Dadaboyeva Marguba Mamasoliyevna	



KICHIK BIZNES FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI

Dadaboyeva Marguba Mamasoliyevna

Andijon davlat texnika instituti dotsenti, i.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada kichik biznes faoliyatini rivojlantirishning nazariy va uslubiy asoslari tahlil qilingan. Unda kichik biznesning iqtisodiy tizimdagi o'ri, uni rivojlantirishning dolzarb jihatlari hamda ushbu sohadagi mavjud muammolar yoritilgan. Shuningdek, kichik biznesni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, xorijiy tajribalar va ularni mahalliy sharoitlarga moslashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Maqolada kichik biznesni rivojlantirishda ilmiy yondashuvlar, tahlil metodlari va strategik takliflar asosida uslubiy yondashuvlar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish hamda ularning iqtisodiy samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: kichik biznes, iqtisodiy rivojlanish, nazariy asoslar, uslubiy yondashuv, davlat siyosati, raqobatbardoshlik.

Abstract: This article analyzes the theoretical and methodological foundations for the development of small business activities. It explores the role of small business in the economic system, key aspects of its development, and the current challenges faced in the sector. Special attention is given to government policies supporting small enterprises, international experiences, and their applicability to local conditions. The paper presents scientific approaches, analytical methods, and strategic proposals for advancing small business. The research findings aim to enhance the competitiveness of small business entities and ensure their economic efficiency.

Key words: small business, economic development, theoretical foundations, methodological approach, government policy, competitiveness.

Аннотация: В данной статье проанализированы теоретические и методологические основы развития деятельности малого бизнеса. Рассмотрена роль малого бизнеса в экономической системе, актуальные аспекты его развития, а также существующие проблемы в данной сфере. Особое внимание уделено государственной политике поддержки малого предпринимательства, зарубежному опыту и возможностям его адаптации к местным условиям. В статье представлены научные подходы, методы анализа и стратегические предложения по развитию малого бизнеса. Результаты исследования направлены на повышение конкурентоспособности субъектов малого бизнеса и обеспечение их экономической эффективности.

Ключевые слова: малый бизнес, экономическое развитие, теоретические основы, методологический подход, государственная политика, конкурентоспособность.

KIRISH

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarda kichik biznes faoliyatini yanada rivojlantirish muhim mavzu sifatida ko'rilmogda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Jahon miqyosida yurtimiz haqida so'z ketganda "Yangi O'zbekiston" iborasi tilga olinayotganligi va keyingi yillarda taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo'yganimiz, erishayotgan yutuqlarimizning zamirida esa barcha yo'nalishlarda olib borilayotgan islohotlar bilan bir qatorda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilganligi va iqtisodiyotimizni yanada yuksaltiramiz desak, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun, barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratib berishimiz zarur" [2].

Hozirgi kunda dunyoda tadbirkorlikning umumiy qabul qilingan ta'rifi mavjud emas. 1723-yilda Parijda nashr etilgan "Umumiy tijorat lug'ati"da iqtisodiy adabiyotlar tarixida birinchi marjtaba "tadbirkor" atamasi tushunchasi berilgan. Bu manbaada "tadbirkor obyektini ishlab chiqarish yoki qurish majburiyatini" o'z zimmasiga olgan shaxs sifatida ta'riflangan.

G'arb adabiyotida tadbirkorlik bu tushunchaning zamonaviy ma'nosida o'ziga xos, innovatsion, byurokratiyaga qarshi iqtisodiy faoliyat sifatida ta'riflanadi, u doimiy ravishda yangi imkoniyatlarni izlash, innovatsiyalarga e'tibor qaratish, resurslarni jalb qilish va berilgan muammoni hal qilish uchun turli manbalardan



foydalanish qobiliyatiga asoslangan. Tadbirkorlikni tushunishga bunday yondashuv O'zbekiston Respublikasida kichik biznesni rivojlantirish uchun juda muhimdir. Shu bilan birga, tadbirkor o'z korxonasini yaratish va rivojlantirishda amaldagi qonunchilikni hisobga olgan holda resurslar manbalarini "izlashi" kerak.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Amerikalik olim, professor Robert Hisrichning fikricha, tadbirkorlik "o'z qiymatiga ega bo'lgan yangi narsalarni yaratish jarayoni", tadbirkor esa "o'z biznesiga barcha zarur vaqt va kuchini bag'ishlaydigan, moliyaviy, psixologik va ijtimoiy havflarni to'raligicha o'z zimmasiga oladigan va mukofot sifatida daromad oladigan va erishgan yutuqlaridan qoniqish hissiga erishadigan shaxsdir" [3].

Shu bilan birga, iqtisodiy adabiyotlarda tadbirkorlik va tadbirkorni iqtisodiy, siyosiy iqtisodiy, psixologik, boshqaruv va boshqa nuqtai nazardan tavsiflovchi juda ko'p boshqa ta'riflar mavjud. Angliyalik professor Alan Xosking fikricha: "Yakka tartibdagi tadbirkor - bu o'z hisobidan biznes yurituvchi, o'z biznesini bevosita boshqaradigan va zarur resurslar bilan ta'minlash uchun shaxsiy javobgarlikni o'z zimmasiga oladigan, boshqaruv, moliyaviy va boshqa qarorlarni mustaqil ravishda qabul qiladigan shaxsdir. Uning mehnati uchun mukofot - bu tadbirkorlik faoliyati jarayonida olingan foyda va erkin tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishdan qoniqish, shuningdek, uning biznesi barbod bo'lgan taqdirda barcha yo'qotish xavfini o'z zimmasiga olishdan iborat" [4].

R.S. Ronshtadt Amerikada faoliyat olib borgan olim bo'lib, u tadbirkorlikni mamlakat farovonligini oshirishning vositasi sifatida baholagan. Boylik o'z pulini, mulkini yoki martabasini yo'qotish xavfi bilan bog'liq bo'lgan faoliyat natijasida yaratiladi. O'z vaqtini o'z biznesini yaratishga sarflaydiganlar, mijozlarga yangi mahsulot yoki xizmatlarni taqdim etadigan va boylikka erishadiganlar. Bu tovarlar yoki xizmatlar butunlay yangi bo'lishi shart emas; Zero, tadbirkorlikning mazmun-mohiyati ana shu samaraga erishish uchun zarur kuch va mablag' sarflash orqali ularga yangi sifatlar berish, qadrini oshirishdan iborat [5].

O'z navbatida rossiyalik akademik iqtisodchi A.V. Busiginning fikri ham qiziqish uyg'otadi. Busygin tadbirkorlikning mohiyati haqida "maxsus ishlab chiqilgan asosda ma'lum bir biznes g'oyasini amaliy amalga oshirish uchun mustaqil tadbirkorlik faoliyatiga intilish". Tadbirkorlik - biznesni modellashtirish shaklida fikrlash jarayonini ishbilarmonlik faoliyatiga ta'biq etish san'ati [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes iqtisodiy va ijtimoiy hayotda muhim o'rin tutadi. Har qanday davlat butun jamiyat manfaatlarini ko'zlab kichik biznesni har tomonlama rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashga intiladi, bu esa jahon iqtisodiy amaliyotida norma hisoblanadi. Bundan tashqari, davlatning vazifasi kichik biznesni nafaqat moliyaviy, texnik va boshqa resurslar bilan ta'minlash, tasodifiy qo'llab-quvvatlash emas, balki ularning yashashi uchun tartibga soluvchi va iqtisodiy shart-sharoitlarni, bozorda o'sishi va mustaqil rivojlanishi uchun bozor iqtisodiyoti sharoitida imkoniyatlar yaratishdir.

Milliy iqtisodiyotning bir qismini tashkil etuvchi ko'plab kompaniyalarni umumiy atamalardan foydalangan holda hajmiga qarab uch guruhga bo'lish mumkin: yirik, o'rta va kichik. Bu guruhlar, o'z navbatida, o'zlarining iqtisodiy xatti-harakatlari modelini belgilovchi o'ziga xos manfaatlarga ega bo'lib, amalga oshirilayotgan davlat siyosati, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va milliy xarakterdagi muammolar bo'yicha o'z fikrlarini bildiradilar [7].

Ta'rifning o'zidan kelib chiqadiki, "kichik biznes" - bu qonunlar, davlat organlari yoki boshqa vakillik tashkilotlari tomonidan belgilangan ma'lum mezonlar (ko'rsatkichlar) bo'yicha bozor iqtisodiyoti subyektlari tomonidan ushbu tushunchaning mohiyatini tashkil etuvchi tadbirkorlik faoliyati [8].

Kichik korxona deganda tadbirkorlik faoliyati shaklining eng katta moslashuvchanligi va dinamikligi bilan ajralib turadigan, har qanday mulkchilik shakli asosida tuzilishi mumkin bo'lgan turli xil tashkiliy-huquqiy shakldagi korxona tushuniladi. Kichik korxonani aniqlash mezonlari: profil va faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarish va iqtisodiy aylanma hajmi, ishlab chiqarish quvvati hajmi, ishlaydigan xodimlar soni va boshqalar [9].

Kichik biznes deganda yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslar ham tushuniladi.

Har bir kichik korxona o'z ustaviga ega bo'lib, unda nomi, turi, faoliyatining predmeti va maqsadi, joylashgan joyi aks ettiriladi; boshqaruv va nazorat organlarining vakolatlari bilan bir qatorda ularning tarkibi; mulkni shakllantirish va foydani taqsimlash usullari; faoliyatini qayta tashkil etish va tugatish shartlari. Davlat



kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va bevosita subsidiyalash uchun mablag'lar yaratish orqali kichik biznesni qo'llab-quvvatlaydi.

Bozor iqtisodiyotining subyekti bo'lgan kichik biznes ayni paytda milliy an'ana va xulq-atvor me'yorlarining o'ziga hos xususiyatlari, tadbirkorlik faoliyati bilan bevosita shug'ullanuvchi shaxslar psixotipi, xavf va innovatsiyalarning yuqori ko'rsatkichlariga ega ijtimoiy-iqtisodiy institut hisoblanadi. Mustaqillik darajasi nisbatan past bo'lganligi sababli u ko'p bosqichli davlat va nodavlat qo'llab-quvvatlash shakllariga asoslanadi [10].

1988-yilda ilk marotaba sobiq sovet hududida kichik korxonalar faoliyatiga ruxsat berildi. Dastlabki bosqichlarda o'rtacha yillik ishchilar soni 100 kishidan oshmaydigan davlat korxonalari kichik korxonalar hisoblanardi.

Xodimlarning o'rtacha soni bilan bir qatorda, miqdoriy qiymati ittifoq respublikalarining o'zlari tomonidan belgilanadigan iqtisodiy aylanma hajmi ham hisobga olindi. Biroq, iqtisodiy tovar ayirboshlash hajmi hech qachon amalda belgilanmagan. Xodimlar soniga qarab korxonalarni kichik deb belgilash tartibi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida hozirgi kungacha saqlanib qolgan.

2012-yil 2-maydagi O'RQ-328-sonli "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi Qonunga asosan "Tadbirkorlik faoliyati (kichik biznes) – tadbirkorlik subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'z tavakkalchiligi va mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyatdir". Qonunga ko'ra kichik tadbirkorlik subyektlari quyidagilar kiradi (1-jadval):

1-jadval. Horijiy mamlakatlarda kichik biznes subyektlarini aniqlas mezonlari [1]

Davlatlar	Me'zonlar	Mikrofirmalar	Kichik korxonalar	O'rta korxonalar
AQSH	Ishchilar soni	50 kishigacha	100 dan 1500 kishigacha	-
	Yillik tushum	0,75 mln. \$ gacha	10 mln. \$ dan 38 mln. \$ gacha	1 млрд. \$ gacha
Yevropa Ittifoqi	Ishchilar soni	10 tagacha	50 tagacha	250 tagacha
	Tovar aylanmasi	2 mln. Evrogacha	10 mln. Evrogacha	50 mln. evrogacha
	Asosiy vositalar	2 mln. Evrogacha	10 mln. Evrogacha	43 mln. evrogacha
Rossiya	Ishchilar soni	15 kishigacha	16-100 kishigacha	101-250 kishigacha
	Yillik tushum	120 mln. Rublgacha	800 mln. Rublgacha	2 mlrd. Rublgacha
Qozog'iston	Ishchilar soni	100 kishi	101-250 kishi	250 dan ko'p
	Yillik tushum EKHK - 2 269 tenge	30 minggacha EKHK	3 mln. gacha EKHK	3 mln. dan ko'p EKHK
Ukraina	Ishchilar soni	10	50	250
	Yillik daromad	2 mln. Evro	10 mln. Evro	50 mln. evro
O'zbekiston	O'rtacha yillik ishchilar soni	10 kishigacha	11-100 kishigacha	101-250 kishigacha

Xodimlarning o'rtacha soni bilan bir qatorda, miqdoriy qiymati ittifoq respublikalarining o'zlari tomonidan belgilanadigan iqtisodiy aylanma hajmi ham hisobga olindi. Biroq, iqtisodiy tovar ayirboshlash hajmi hech qachon amalda belgilanmagan. Xodimlar soniga qarab korxonalarni kichik deb belgilash tartibi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida hozirgi kungacha saqlanib qolgan.

2012-yil 2-maydagi O'RQ—328-sonli "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi Qonunga ko'ra kichik tadbirkorlik subyektlari quyidagilar kiradi:

yakka tartibdagi tadbirkorlar;

Hodimlarning o'rtacha yillik soni bo'yicha:

ishlab chiqarish tarmoqlaridagi band bo'lgan ishchilarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan yigirma kishi, xizmat ko'rsatish sohasidagi va ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa sohalaridagi, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan – 10 kishi;

ulgurji, chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish tarmoqlaridagi, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan – 5 kishi;



qonunchilikda nazarda tutilgan yengil, oziq-ovqat sanoatidagi va qurilish materiallari sanoatidagi, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan- 200 kishi;

metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog'ochsozlik, mebel sanoatidagi, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalaridagi, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan – 100 kishi;

mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish va ularni qayta ishlash, qurilish hamda qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalaridagi, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan – 50 kishi;

fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohalari (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa sohalardagi, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan – 25 kishi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari xodimlarining o'rtacha yillik soni qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda belgilanadi. Bunda o'rindoshlik, pudrat shartnomalari va fuqarolik-huquqiy xarakterdagi boshqa shartnomalar bo'yicha ishga qabul qilingan xodimlarning, shuningdek unitar korxonalarda, vakolatxonalar va filiallarda ishlayotganlarning soni ham hisobga olinadi.

Bir necha turda faoliyat olib boruvchi (ko'p tarmoqli) yuridik va jismoniy shaxslar yillik aylanma hajmida ulushi eng ko'p bo'lgan faoliyat turi talablariga asosan kichik tadbirkorlik subyektlariga mansubligi belgilanadi.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi korxonalar (tashkilotlar) kichik biznes subyektlari sifatida tasniflanadigan eng muhim ko'rsatkichlardan birini belgilab qo'ydi, ya'ni bu hodimlar sonidir. Shu munosabat bilan korxonada xodimlar sonini aniqlashning to'g'riligi nafaqat korxonani xo'jalik yurituvchi subyektning ma'lum bir toifasiga kiritish, balki tegishli hukumat ko'magini olish huquqini qo'lga kiritish uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Kichik biznes faoliyatining rivojlanishiga quyidagi sabablar o'z ta'sirini eng kuchli o'tkaza oladi:

axborot texnologiyalari sohasidagi tubdan o'zgarishlar;

kichik korxonalar sababli xizmat ko'rsatish sohasi faoliyat turlarini ortishi;

axborot tizimlaridan foydalanish narxidagi o'zgarishlar, ulardan foydalanish imkonining oshishi;

hududda faoliyat olib borayotgan yirik korxonalar tajribasidan o'rganish orqali tadbirkorlarning moliyaviy savodhonligini ortishi;

kichik firmalar faoliyati yordamida hududda ishsizlik muammosi bilan kurashish;

qo'shimcha xarajatlarni kamaytirish va ish haqi to'lovlarning barqarorligini oshirish hisobiga tannarxni kamaytirish va buni natijasida sog'lom raqobatning o'sishi¹⁶. Kichik biznesning ahamiyati va roli ham iqtisodiy, ham ijtimoiy tomondan ko'rib chiqilishi kerak. Iqtisodiy nuqtai nazardan ushbu iqtisodiy tarmoqning ahamiyati quyidagi xususiyatlar tufayli shakllanadi:

xususiy mulkdorlar tomonidan ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulot (YaIM) ulushi;

milliy daromad ulushlari;

boshqa kompaniyalarning umumiy sonidagi kichik korxonalar ulushi;

mehnatga layoqatli aholi soni;

mahsulot eksportidagi ulush;

solisqlarning umumiy miqdori;

asosiy kapitalning qismlari;

kichik kompaniyalar tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning ayrim turlarining ahamiyati.

Bu xususiyatlardan birortasining qiymati oshsa, davlat iqtisodiyotida kichik biznesning roli ortadi. Ijtimoiy nuqtai nazardan kichik biznesning ahamiyati quyidagilardan iborat:

ishsizlik darajasini pasaytirishda;

mijozlar ehtiyojlarini qondirish;

xizmat ko'rsatish sifatining oshishi;

iqtisodiyotni samarali rivojlantirish va odamlarning turmush sifatini yaxshilash maqsadida o'rta sinfni jamiyat asosi sifatida shakllantirishda;

barqaror iqtisodiyotni saqlashdan manfaatdor kichik mulkdorlar sinfini shakllantirishda;

jamiyatdagi bosimni pasaytirishda.

Kichik biznesning mohiyatini uning funksiyalari (innovatsion, tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy va shaxsiy) nuqtai nazaridan ko'rib chiqishda uning ahamiyati o'ziga aniq emasligi ayon bo'ladi. Aslida esa kichik biznes innovatsion funktsiyani amalga oshirishda, ayniqsa, eng so'nggi ilmiy va muhandislik g'oyalarini tasdiqlashda, rejalar tuzishda, tadqiqot va loyihalarni amalga oshirishda katta ahamiyatga egadir.

Yuqorida aytilganlarning barchasining mohiyati quyidagilardan iborat: kichik tadbirkorlik - bu kichik biznesning tovar va xizmatlar bozoridagi faoliyati bilan belgilanadigan iqtisodiyot tarmog'idir. Kichik korxonalarga ishchilar soni o'rtacha hisobda 100 dan oshmaydigan va bir yillik aylanmasi 1 mlrd. so'mdan oshmaydigan,



shuningdek tashkilotning yillik aylanmasi, aktivlari va nominal kapitali hisobga olinadigan kichik korxonalar kiradi. Kichik biznesning mohiyati turli mezonlar yordamida aniqlanadi.

Kichik biznes bozor iqtisodiyotining eng muhim subyektlaridan biri bo'lib, asosan mamlakatda iqtisodiy o'sish sur'atlarini va yalpi milliy mahsulotni belgilaydi. Kichik biznes asosiy bozor sektori bo'lib, talab o'zgarganda tezlik bilan harakat qila boshlaydi va shu orqali bozor infratuzilmasining asosi hisoblanadi.

Umumiy qilib ta'rif berilganda, kichik biznes degani shahsiy yoki o'zlashtirilgan, moliyalashtirilgan mablag'lar bilan amalga oshiriladigan savdo faoliyati, xizmat ko'rsatish jarayonida to'liq tavakkalchilikni va to'liq mulkiy javobgarlikni o'z zimmasiga olgan holda, o'z riski hisobiga foyda olishga qaratilgan kichik hajmdagi faoliyat turlari tushuniladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari kichik biznesning iqtisodiy tizimdagi o'rni va ahamiyati nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshirish, balki bandlikni ta'minlash, innovatsiyalarni joriy etish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda ham muhim omil ekanini tasdiqlaydi. Kichik biznes faoliyatini tizimli rivojlantirish nazariy va uslubiy yondashuvlar bilan mustahkam asoslantirilgandagina u iqtisodiyotni tarkiban diversifikatsiya qilishda faol rol o'ynaydi. Shu nuqtai nazardan, kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashda kompleks yondashuv, resurslardan samarali foydalanish hamda tartibga soluvchi institutsional mexanizmlarni takomillashtirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Ushbu maqola doirasida quyidagi takliflar ilgari surishimiz mumkin:

Kichik biznes faoliyatini hududiy va tarmoq kesimida rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish lozim, bu esa mahalliy resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi.

Kichik biznes subyektlariga moliyaviy resurslarga keng va qulay kirish imkonini yaratish (imtiyozli kreditlar, grantlar, sug'urta mexanizmlari) ularning innovatsion faoliyatini faollashtiradi.

Tadbirkorlar salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan ta'lim va maslahat xizmatlarini kengaytirish orqali tadbirkorlik madaniyati va menejment ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin.

Statistik monitoring tizimini takomillashtirish kichik biznesning real iqtisodiy natijalarini aniqlash va davlat siyosatini maqsadli shakllantirishda muhim vositadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-maydagi O'RQ-328-sonli "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi qonun.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan "ochiq muloqot". 20.08.2021-y. <https://bojxona.uz/uz/news/view/6730>
3. Р.Хизрич, М.Питерс. Предпринимательство, или как завести собственное дело и добиться успеха. Прогресс-универс, 1991 - 16 С.
4. А. Хоскинг. Предпринимательство как институт рыночной экономики. 2025 г. 12 с.
5. М.Г.Лапуста. Предпринимательство учебник, Москва Инфра-М 2024 6 с.
6. А.В. Бусыгин Предпринимательство: учебник. - 2-е изд., испр. - М.: Дело, 2023. - 640 с.
7. В. Ю. Буров Основы предпринимательства: учеб. Пособие, 3 ч.; Изд. 2-е, Заб ГУ, 2023. 978 с.
8. Абрютина М. С. Экономика предприятия - М.: Дело и сервис, 2024.- 528 с.
9. Лапуста М.Г., Старостин Ю.Л. Малое предпринимательство. - М.: ИНФРА-М, 2016. - 320 с.
10. Муравьев А.И., Игнатьев А.М., Крутик А.Б. Малый бизнес: экономика, организация, финансы. - СПб.: Бизнес-пресса, 2021. - 608 с.
11. Франовская Г.Н. Малый бизнес: учебное пособие для вузов. Воронеж: Изд.-полиграфический центр Воронежского гос. ун-та, 2017. - 204 с.
12. <https://www.oecd.org/smes>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>